

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7832023>

M. Abduvohidov

GulDU Psixologiya yo'nalishi talabasi

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi kup jixatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bola avvalo maktabga jismoniy jixatdan tayyor bulishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi uziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning og'irligi oyiga 150- 200 gm dan buyi esa 0,5 sm dan kupayadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda yura oladilar, tez va engil yugura oladilar. Ular yugurib kelib sakrash, konkida yugurish, changida uchish, suzish singari harakatlarni ham bemalol bajara oladilar. Musiqa buyicha mashgulotlarda ham bu yoshdagi bolalar xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashklarni ham anik, tez, engil va chakkon bajara oladilar. Shuningdek, 6-7 yoshli bolalar nerv sistemasini, mustahkamlash, ularni surunkali kasalliklardan xalos etish, kurish va eshitish qobiliyatiga aloxida ehtibor berish, shuningdek umurtka pogonasining tugri rivojlanishiga ahamiyat berish nixoyatda muxim. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar bu yoshdagi bolalar organizmi xali usishini davom ettirayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga urgatish xali barmok muskullari tulik rivojlanib bulmaganligi sababli ularga mahlum darajada zarar keltirishi yoki uning chiroyli yoza olmasligi, o'z-o'zidan bolani o'ziga nisbatan ishonchini yoki o'qishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin. Ikkinchi tayyorgarlik bu aqliy tayyorgarlikdir. Kupincha aqliy tayyorgarlik deganda bolaning mahlum bir dunyokarashi jonli tabiat, insonlar va ularning mexnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan tahlimga asos bulishi mumkin, lekin so'z boyligi, mahlum xatti-harakatlarni bajara olish layokati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy kursatkichi bula olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, taxlil eta olish, umumlashtira olish, ma'lum bir xulosa chikara olish, shuningdek etarli darajada rivojlangan bilish jarayonlarini talab etadi. Masalan, 6-7 yoshli bola tabiat haqida ayrim xodisalarinigina emas, balki organizmni tabiat bilan bog'liqligini va o'zaro tahsirini ham tushunishi va o'zlashtirishi mumkin. 6-7 yoshli bolalar aqliy rivojlanishning natijasi bulib yukori darajada rivojlangan kurgazmali obrazli tafakkur bilan bola atrof olamdagi predmetlarning asosiy xususiyatlarini va predmetlar orasidagi bog'liqlikni ajrata oladi. Shuni aloxida tahkidlab utish lozimki, kurgazmali harakatli va kurgazmali obrazli tafakkur nafakat 6-7 yoshli bolalar balki kichik maktab yoshidagi o'quvchilar aqliy rivojlanishida asosiy funktsiyani bajaradi. Bu borada bolada mahlum bir kunikmalarning tarkib topganligi ham nixoyatda muximdir.

Bu davrda bolalarda avvalo bilish soxalari so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlashin obrazlilikdan to simvollilikgacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi. Obrazlilik deganda bolalarning turli obrazlarni yaratish, ularni o'zgartirish va ularni erkin harakatga solish, simvollilik deganda esa belgilar sistemasi (matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi. Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqati asosan bolalarning konstruktorlik o'yinlarda, texnik va badiiy ijodlarida namayon bo'ladi. Bu davrda maxsus layoqotlar kurtaqlarning birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Bilish jarayonlarida ichki va tashqi harakatlarning sintezi yuzaga keladi. Biron bir narsani idrok qilish jarayonida bu sintez pertsentiv harakatlarda, diqqatda ichki va tashqi harakatlar va xolatlar rejasini boshqarish va nazorat etishda, xotirada esa materialni esda saqlab qolish va esga tushurishning ichki va tashqi to'zilmasini bolay olishda ko'rinadi. Tafakkurda esa amaliy masalalar ishining usullarini bitta umumiy jarayonga birlashtirish sifatida yaqqol nomoyon bo'ladi. Shuning asosida insoniy intellekt shaqllanadi va rivojlanadi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganidan dalolat hisoblanadi. Bilish jarayonlarning sintezi bolaning o'z ona tilisini to'liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shaqllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada elementar axloqiy norma va qoidalar egalaniladi. Bu norma va qoidalar bola axloqini boshqaradi.

Bola va atrofidagi kishilar orasida xilma xil munosabatlar yuzaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti balki axloqiy motivatsion jixatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

Xullas, maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojining cho'qqisi bo'lib, ularning o'z shaxsiy sifatleri, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'z-o'zini anglash hissining yuzaga kelgani hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Abdulloh Muhammad Al-Buxoriy «Hadis» 1 jild, qomuslar bosh tahririyati T, 1991
2. Mavlonova R. To'raeva O. Xoliqberdiev K. Pedagogika. T. «O'qituvchi» 2001.
3. Xoshimov K va boshqalar «Pedagogika tarixi» T. «O'qituvchi» 1996.
4. Ya.A. Nurumbekova «Personal psychology and coaching» study guide. Gulistan. GulDU. 2022. -281b

5. Nurumbekova, Y. (2021). TRAINING OF FUTURE TEACHERS TO PROFESSIONAL EDUCATIVE ACTIVITY ON THE BASEMENT. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(01), 66-74.
6. Nurumbekova, Y., & Gulistan, U. Z. B. E. K. I. S. T. A. N. (2019). A TEACHER-EDUCATOR EDUCATIONAL INITIATIVE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*.
7. Nurumbekova, Y. (2019). Importance of Technologizing Teacher-Mentor's Professional Activity. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
8. Nurumbekova, Y. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGI. *Архив научных исследований*, 2(1).
9. Anarmatovna, N. Y., & Ummatkulovna, X. Z. (2022). IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL-SPIRITUAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1832-1838.